



TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARNI OZIQLANTIRISH HAMDA PARVARISHLASH

Respublikamizda tuxum yo'nalishidagi parrandalarning hozirgi kunda eng zamonaviy yuqori mahsuldor krosslaridan Loman, Loman Braunni klassik, Loman LSL, Leggorn, Loman Braun vayt krosslari parvarishlanmoqda. Ular bir yilda uy sharoitida 300 donagacha, sanoat parrandachiligidagi 350 donagacha tuxum beradi.



bera boshlaydi. Eng yuqori mahsuldorligi 92-94% ni tashkil etadi. Bir yilda 302-304 (ba'zan 315-320) ta tuxum beradi, tuxumining vazni 63,5-64,5 g. Vazni 20 haftada 1,6-1,7 kg, tuxum berish davrining oxirida 1,9-2,1 kg bo'ladi.

Loman Braun tuxum yo'nalishidagi mashhur tovuq zotidir. Uning klassik va vayt turlari mavjud. Jahon bozorida sarmahsulliligi, tuxumning ranggi va tashqi qobig'inining qattiqligi bilan ajralib turadi. 140-150 kunlik yoshda makiyonchalarining 50% tuxum



ixcham ko'rinishdagi, keng ko'krakli va kuchli sariq oyoqlarga ega. Tanasi yaltiroq va zich tortilib turadi. Loman Braun katta vaznli bo'lмаган klassik zot. Katta xo'rozlarning og'irligi maksimal 3 kilogramm, tovuqlari esa 2 kilogramm atrofida. Tovuqlarning ranggi jigarrang, dumlarning uchida oq mayda patlari bor, xo'rozlari esa quyuq qora dog'li jigarrangda bo'ladi.

Loman Braun vayt ko'rakmili jihatdan Loman Braun klassikka o'xshaydi. Ularning asosiy farqi patlarining va tuxum qobig'inining ranggidadir. Loman Braun xo'rozlari ham oq rangda bo'ladi.



Loman LSL tuxum yo'nalishidagi tovuq zotidir. Uning klassik va vayt turlari mavjud. Ularning orasidagi farq: vayt tuxum turiga nisbatan ko'proq, ammo kichikroq tuxum beradi. Loman Braundan uncha farq qilmaydi. Patlari va tuxumining ranggi oq. Parvarishlash tannarxi arzon. Kataklarda boqishga moslashgan bo'lsa-da, uni yerda va qattiq

tannarxi arzon. Kataklarda boqishga moslashgan bo'lsa-da, uni yerda va qattiq



to'shamali polda ham boqish mumkin. Bir yil davomida 341-346 ta tuxum beradi, tuxumining vazni 61,5-63 g.

Leggorn tovuqlari serpusht zotdir. Bu zot AQSh va Italiyadan olib kelingan. Mahalliy yengil vaznli tovuqlarni (pati oq, qizg'ish va qora tusda) tanlash va naslchilik ishlarining boshqa usullari qo'llanilishi natijasida vujudga kelgan. Leggorn zot tovuqlari dunyoning turli joylarda ko'p tarqalgan. Bu zot tovuqlarining mahsuldorligi quyidagi ko'rsatkichlarga ega: serpushtliliqi yil mobaynida 200-240 dona tuxum, tuxumining o'rtacha vazni 56-62 g. Yetuk tovuqlar vazni 1,8 kg, xo'rozlarining vazni 2,5 kg. Maydonda parvarishlash zichligi - boqish usuli va binodagi mikroiqlimga bog'liq. Tovuqlarni umumiyligi 1 m² maydonda parvarishlash zichligi 6-8 donani tashkil etadi.

Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni kataklarda saqlash yerda boqishga nisbatan katak uskunasining turiga qarab bir necha barobar ko'p parrandalar boqish imkonini beradi. Bunday parvarishlash vaqtini, ozuqa sarfini tejaydi va tuxum sifatini yaxshilaydi.

Tovuqlarni suv bilan ta'minlashda nippelik suv ichish tizimidan foydalanish, qimmatli veterinariya preparatlarini suv bilan birga ichirish imkonini beradi va ularning behuda sarf bo'lishga yo'l qo'yilmaydi. Kataklarda saqlaganda tovuqlarni oziqlantirish vaqtida ozuqa yo'qotilishi keskin kamayadi. Parrandaning o'z go'nggi bilan kontakti bo'lmasligi sababli yuqumli kasalliklarning tarqalish xavfi oldi olinadi.

Tovuqlarni oziqlantirish. Sifatli ozuqalardan tayyorlanib, to'yimliligi me'yorlar bo'yicha muvozanatlashtirilgan ozuqalardan foydalanmasdan, tovuqlarning yuqori mahsuldorligiga va iqtisodiy samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Tovuqlar ratsionida energiyaning asosiy manbai bo'lib donli ozuqalar (makkajo'xori, bug'doy, oqjo'xori, arpa, suli), soya, paxta va kungaboqar shroti, omuxta yem, o'simlik yog'lari va boshqalar hisoblanadi.

Tovuqlarning yuqori irsiy imkoniyati mahsuldorligiga qat'iy muvozanatlashtirilgan ozuqa yem orqali erishish mumkin. Quyida tuxum berayotgan tovuqlarning oziqlantirish retsepti keltiriladi.

Ozuqa tarkibi	Tovuqlar yoshi			
	17 hafta (mahsuldorlik 5% gacha)	18-45 hafta (mahsuldorlik 5%дана юқору)	45-65 hafta	66 hafta va undan yuqori
Bug'doy uni	38	40	40	38
Makkajo'xori doni	20	20	20	15
Soya shroti	15	15	10	8
Kungaboqar shroti	12	14	14	16
O'simlik yog'i	3	3	2,4	2,2
Lizin	0,12	0,16	0,15	0,1
Metionin	0,14	0,18	0,15	0,15
Ozuqa ohagi				
Trikalsiy fosfat	1,5	1,5	1,5	1
Osh tuzi	0,3	0,3	0,3	0,3
Choy sodasi	0,1	0,1	0,1	0,1
Premiks	0,1	0,1	0,1	0,1



Tuxumning vazni ozuqaning tarkibi va ozuqa berish oralig‘iga bog‘liq bo‘lib, ozuqlarni yetarli miqdorda berish tuxum hajmining oshishiga olib keladi. Tovuqlarga ozuqlar yoshiga qarab quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan me’yorlarda berish maqsadga muvofiq.

Yoshi (hafta)	Oziqa ist’emoli (gramm)	Yoshi (hafta)	Oziqa ist’emoli (gramm)
18	82	26	112
19	92	27	114
20	98	28-40	115
21	100	41-50	114
22	104	51-61	113
23	106	62-72	112
24	108	73-80	111
25	110	-	-

Tovuqlarni kunlik nazorati. Har kungi nazoratni o‘tkazishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish talab etiladi:

- parrandalarning umumiyl holati;
- tovuqxona harorati;
- ozuqa va suv iste’molini kuzatib borish (kun davomida 2 marta);
- yorug‘lik;
- parrandalarning harakatchanligi;
- parrandalarning go‘nggini holati.

Suv bilan ta’minalash. Parrandalardan yuqori mahsulot olishda nafaqat yuqori sifatli va to‘yimli muvozanatlashtirilgan ozuqlar kerak bo‘ladi, balki toza ichimlik suvi ham katta ahamiyatga ega. Tovuklar o‘rtacha bir sutkada 200-250 ml suv ist’emol qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maqola muallifi

Azamat Esanov

*Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fermerlar maktabi O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
“Parrandachilik” moduli o‘qituvchisi*